

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**"Kimyo-texnologiya" fakulteti
"Kimyoviy texnologiya" kafedrasi**

"Himoyaga ruhsat etildi"

Fakultet dekani

_____ dots. A.Mamaxanov

“ ” _____ 2018 yil

5320400 - Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)
bakalavriatura ta'lrim yo'nalishi bitiruvchisi

Otaboyev Bekzod Rasuljon o`g`lining

**POLIETILEN ISHLAB CHIQARISH LINIYASI GRANULALASH
JARAYONIDA SOVUTUVCHI SUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**
mavzusidagi

DIPLOM LOYIHA ISHI

Bitiruvchi:

B. Otaboyev

Rahbar:

dots. A. Hamdamov

Kafedra mudiri:

dots. D.Sherquziyev

Namangan 2018

MUNDARIJA

Kirish
I. Texnologik qism
1.1. Mahsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy-kimyoviy, texnologik asoslari.....
1.2. Xom ashyo, yordamchi materiallar
1.3. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari.....
1.4. Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar
1.5. Xom ashyo va materiallarning sarf balansi.....
1.6. Texnologik jarayonda asosiy jihozni tanlash va uning issiqlik balansini hisoblash.....
II. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish.....
III. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....
IV. Mehnat muhofazasi va atrof muhitni muhofaza qilish.....
Xulosa.....
Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2015 yil 4 martdagি PF-4707-son «2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o`zgartirish, modernizasiya va diversifikasiya qilishni ta`minlash bo`yicha chora-tadbirlar dasturi to`g`risida»gi Farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar dasturi to`g`risida”gi Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlar kimyo sanoatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi[1].

O'zbekistonning kimyo sanoati kundan-kunga rivojlanib uning mahsulotlarining iqtisodiyot sohalaridagi eksport salmog'i hamda ichki xo`jalik talablarini qondirish borasidagi ulushi ortib bormoqda. Ushbu sanoat sohasini rivojlantirish maqsadida maxsus investision dastur ishlab chiqildi va u respublikaning kimyo sanoati hamda iqtisodiyotining ravnaqiga munosib ulush qo`shmoqda.

Albatta kimyo sanoati og`ir sanoat tarmoqlaridan biri, bu tarmoqda xilmalix kimyoviy mahsulotlar, jumladan kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganiq kislotalar, ishqorlar, mineral o`g`itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va b.), plastmassa va sintetik smolalar, kaprolaktam, selluloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo`yoq materiallari, sintetik bo`yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va b. ni ishlab chiqariladi. Respublikamizda plastmassa va propilen mahsulotlarini qayta ishlovchi, turli markadagi lok-bo`yoq mahsulotlari, mebel sanoati uchun sintetik smolalar, maishiy kimyo tovarlari va boshqa ko`plab kimyo mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar ishlaydi. Keyingi yillarda respublika sanoati mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoatining hissasi ortib bormoqda. O`tgan yillarda 832 ming t mineral o`g`itlar, 15 ming t sintetik smolalar va plastik massalar, 14,7 ming t kimyoviy tola va iplar, 985 ming t sintetik ammiak, 823,4 ming t sulfat kislota, 287 ming t oltingugurt va b. mahsulotlar ishlab chiqarildi[2].

Hozirgi kunda kimyo sanoati mahsulotlari xalq xo`jaligining keng sahalaridada, shuningdek qurilish sohasida qurilish materiallari va bujomlari ishdab chiqarishda ham keng qo`llanilmoqda. Chunki har qanday qurilishning asosini qurilish materiallari va bujomlari tashkil qiladi. Binolar va qurilmalarning iqtisodiy jihatdan afzalligi faqatgina Qurilish materiallarining sifatiga bog`liq bo`lib qolmay, ularni to`g`ri tanlab olish, to`g`ri ishlatilishiga ham bog`liq. har qanday qurilishni to`g`ri loyihalash, qurish va to`g`ri ishlatish uchun ang avvalo qurilish materiallarining xossalari bilish kerak.

Dunyo miqyosida polimerlarni ishlab chiqarish hajmi 200 mln. tonnadan ortadi, shundan polietilen va polipropilenlarning hajmi 35-45% ni tashkil etadi. Xususan qurilish sohasida polimer mahsulotlarining faol rivojlanish sabablari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- xom-ashyoning keng va deyarli barcha joyda qo`llanilishi;
- narx navo va sifat ko`rsatkichlarining yaxshi nisbatda bo`lishi;
- ishlab chiqarishning yoqori samarador usullari – ekstruziya, quyish va presslash usullarini qo`llash imkoniyati mavjudligi;
- ishlab chiqarish va qo`llashda ekologik afzalligi;
- materialning uzoq muddat xizmat qilish, montaj ishlariga va ekspluatasiya (tozalash, ta`mirlash) davrida kam xarajatlar[3].

Ta`kidlash joizki, bu soha plasmassa ishlab chiqarish, yog`och qayta ishslash va sanoat, qishloq xo`jaligi va shaxar chiqindilari utilizatsiya qilish industriyasi manfaatlari kesishgan xolatga mos muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

Diplom loyiha ishi maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- texnologik jarayonni undagi qaytar va qaytmas yo`qotishlarni oldindan hisoblashni o`rganish va hom ashyo sarf balansini tuzish;
- tanlangan asosiy jihozni texnik xarakteristikasini, ishslash prinsiplarini, issiqlik balansini tuzish;
- texnologik jarayonni avtomatlashtirish va jihozni optimal ishslash sharoitini tanlash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tannarxini rentabilligini hisoblash;

– texnologik liniyada ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo`lgan zararli gazlarni aniqlash va sanitary normalarni bilish ularning inson salomatligiga ta’sirini o’rganish.

Diplom loyiha ishi ob`ekti va predmeti: polietilen ishlab chiqarish uchun qo`llaniladigan xom ashyosi vasovutuvchi suv tizimi, ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyasi hisoblanadi.

Diplom loyiha ishi tuzilishi va hajmi. Diplom loyiha ishi kirish, texnologik qism, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari, mehnat muhofazasi va atrof muhitni muhofaza qilish, xulosa, foydalanimgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topgan. DLI hajmi 62 betdan iborat.

I. Texnologik qism

1.1. Mahsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy-kimyoviy, texnologik asoslari

Termoplastik polimerlarni har xil profilga ega bo'lgan teshiklar orqali uzliksiz chiqarishi va uni sovitish ekstruziyalash deb ataladi. Bu usul bilan trubalar, pardalar, list, pylonka, shlanglar, kabel simlarini ustini palimerlar bilan qoplash va har xil uzunasiga o'lchanadigan buyumlar olinadi.

Polimer buyumlarini ekstruziyalash orqali olinadigan qurilmalar esa ekstruderlar deyiladi. Ekstruderlarni tuzilishi ishlash printsipi ekstruziya jaroyoni ekstruder deb ataluvchi mashinalarda amalga oshiriladi ekstruderlar har xil boyaladi: bir chervyakli, ikki chervyakli, diskli va konbinirlangan.

Ekstruder asosan quyidagi qismdan iborat, stateka, unda ishlaydigan slinder joylashtiriladi. Silindrni ichki qismida bir yoki ikki chervyak o'matiladi. Chervyaklar Elektrdivigatel bilan aylanishi uchun bog'langan slinderga isitish va sovitish sistemasi mavjud. Shakllanish uchun maxsus forma qo'llaniladi. Masalan: truba olish uchun iborat profli beradigan qo'shimcha uskuna yasatiladi.

Eksruderlash uchun material granula holatda mashina bunkiri orqali isitiladigan silinderga tushadi. U yerdan oquvchan holatga o'tgan issiq material aylanib turuvchi shnek vositasi orqali oldinga surilib mashinani bosh qismiga o'rnatigan forma orqali siqib chiqariladi. Demak ekstruderni vazifasi polimerni silinder boylab uning yumshatilishini va gomogenlashishiga o'tishini taminlashdir; undan tashqari silinder ichida gidrostatik bosim paydo qilish, chunki polimer oqimi va uning kalpak orqali shaklga aylanishi shu bosim tufayli amalgam oshiriladi. SHnek va uning tuzilishi hamda vazifalari. Isitiladigan slindir (chervyaklar singari) shartli ravishta uch zonaga bo'linadi:

1. Zona – granulaning slindirga tushishini va uni oldinga siljishi va zichlanishi

2. Zona – siqish zonasi, bu zonada polimer sekin – asta issiqlik tasirida yumshaydi va plastinkalanadi. Bu berilayotgan issiqlik va materialning ichki ishqalanishi natijasida hosil bo’ladigan issiqlik tufayli amalga oshiriladi

Polimerni suyuqlanishida uning hajmi kamayadi, shu tufayli bu zonada chervyak bind kanali orqali suyuqlanma qoliqga siqib chiqarilib beriladi.

1. Zona uzunligi odatda silindirga tushayotgan granul joyidan boshlab to granulni qatlash silindir devoriga yoki shnekda hosil bog’lanicha uzunlik qabul qilinadi.

2. Zona – suyuqlanish zonasi – suyuqlanishi boshlangandan to butunlay granuli suyuqlanganholatga kelguncha shnek masafasi qabul qilingan.

3. Zona dozirovani, bu yerda bununlay suyuqlangan harorat yoki bir tekis taqsimlangan va suyuq polimer bir xil xossaga ega bo’lishini taminlash zonasidir va suyuqlanma siqib chiqarishga tayyor. CHervyakni vint kanalida 4 oqimini kuzatish mumukin.

1. To’g’ri, majburiy oqim bu kallak tamon yunalgan bo’ladi.

2. Teskari oqim – to’g’ri oqimni kamayishi, kallakning silindir devorining qarshiligigadir.

3. Sirkulyatsion oqim – vintli kanal o’qiga perpendikulyar ravishda yunalgan oqim bo’ladi.

4. “Utechka” oqimi – chervyak va silindirni ichki sayxida xosil bo’lgan oraliqda sodir bo’ladi va u granula tushayotgan bunker tamon yo’nalgan bo’ladi.

Ekstruderning unumdorligi to’g’ri va teskari oqimidan kelib chiqadi.

Sirkulyatsion oqim odatda ekstruder unumdorligiga diyarli ta’sir etmaydi, “Uterka” oqimi qiymati juda kam bo’lgani uchun u hisobga olinmadi. CHervyak zonalarining uzunligi va ularning bir biriga nisbati qayta ishlanayotgan polimer xossasiga tuzilishiga bog’liqdir.

Masalan amalda termoplastlar qayta ishlanayotganda (ular keng diopozonli haroratda suyuqlanadi) chervyakning siqish zonasi uzunroq bo’lishi kerak. Kristall polimer uzun siqish zonasi qisqaroq bo’ladi. (odatda zona uzunligi slinderning diametriga teng bo’ladi).

Termik turg'un bo'lmanan termoplastlarni qayta ishlashda zonasiz jarayon olib boriladi. Buning uchun maxsus chervyaklar qo'llaniladi, ularda kanal chuqurligi kamayib boradi. Buning natijasida RVX ni parchalanishi keskin kamayib yuboriladi. (Yana shuni e'tiborga oilsh kerakki, siqish zonasida issiqlik ajralib chiqadi).

Silindr ichida materialni oqimiga ishqalanish koeffisenti qayta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun chervyak yuzasiga va material o'rtaisdagi ishqalanish koeffisenti silindrni yuzasi bilan kam bo'lishi kerak. Agarda bunga rioya qilinmasa, unda suyuqlanma polimer chervyak bilan aylanib ketadi va oldinga siljishi bo'lmaydi.

Chervyakka bo'lgan ishqalanish koeffisentini kamaytirish uchun chervyak ichidagi (o'qi orqali) sovuq suv yuboriladi. Buni quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin. Masalan, polietinendan buyum olish jarayonida bu farq 30 -400 s ni tashkil etadi. Lekin shnekni harorati past bo'lsa granulaning suyuqlanishi qiyinlashadi (qovushqoqligi oshadi) gomogen massa hosil bo'lishi qiyinlashadi. Natijada mashina unumdorligi pasayadi (Q) va nisbiy "mashnost", "udelnaya mashnost" (N) ortadi. Buni quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin.

Suyuqlanmani tsilindr orqali aralashtirish jarayonida mehanik energiyasining bir qismi issiqlik energiyasiga aylanadi. Issiqlik ajralishi chervyakning aylanish soni oshishiga olib boradi. Bu ajralgan issiqlik qiymati ko'paygan sari ayrim paytlarda tashqaridan isitishiga kansat bo'may qoladi.

Ekstruziyalashning Texnalogik Parametrlari.

Bularga quyidagilar kiradi: suyuqlanma harorati silindrga va kalpakda, suyuqlanmaning kalpakdagi bosimi shnekning aylanish tezligi (chastotasi) optimal rejimni belgilashda termoplastning to'ri, uning molekulyar massasi, kompazitsiya tarkibi, buyumning o'lchami va shakli, foydalilanilayotgan uskuna turlari va hokozalarning hisobga olish kerak. Ekstruiderning ishlashiga granulaning formasi va o'lchami katta ta'sir ko'rsatadi. Agarda granula katta o'lchamga ega bo'lsa, unda suyuqlanma ichida havo qolishi mumkin.

Bu olingan buyumda pufak xosil bo'lishiga olib keladi. Xuddi shunga o'xhash buyum sifatida suyuqlanmaga ta'sir qilayotgankuchlanish (kapryatsiya) va deformatsiya tezligi ta'sir ko'rsatadi. Agarda granula katta o'lchamga ega bo'lsa unda suyuqlanma ichida havo qolishi mumkin. Bu olingan buyumga pufak (vzdutiya) xosil bo'lishiga olib keladi. Xuddi shunga o'xhash buyum sifatida suyuqlanmaga ta'sir qilayotgan kuchlanish va defotmatsiya ta'sir ko'rsatadi. Agarda kuchlanish ko'payib borsa (normadan yuqori) unda buyum sirtida notekislik qalinlashish va boshqa sifatga salbiy ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar paydo bo'ladi.

Odatda slindr harorati shnek haroratidan yuqori bo'ladi. SHu sababli oldin suyuqlanadigan polimer plyonkasi slindr devoriga paydo bo'ladi. Suyuqlangan materialni harakati slindr yuzasiga va granulaning esa shnek atrofida siljishi tufayli yuzaga keladi.

Granulaning suyuqlanishi tufayli uning suyuqlanish zaryadi shnekning chuqurligi kamayib boradi, buning hisobiga asta –sekin siqish va zichlanish sodir bo'ladi. Qanchalik oldin suyuqlanish tamom bo'lsa, shunchalik suyuqlanma aralashishi yaxshilanadi va u bir tekis bo'ladi.

Dozalash zonasida suyuqlanma xarakati qovushqoqlik – oquvchanlik orqali bo'ladi. Bunda shnekni aylanish slender devoriga yopishgan polimerni katta tasiri bor. Ekstruziya texnalogik jarayonlari kankret texnalogik jarayonga qarab hisoblanadi. Masalan kristallanish va bo'lagi ma'lum kristallik darajasiga ega bo'lishiga uchun suyuqlanani sovutish tezligi nastarsionar issiqlik o'tkazuvchanligiga qarab ekstrudatni chiqarish tezligi a ekstruderning ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Amorf polimerlaridan buyum olishda ekstruziya tezligi orientatsiya daralasiga qarab aniqlanadi. Unda ekstudentga noteslik xosil bo'lishini e'tiborga olish zarur. Statsionar holatga quyidagi tengka rioya qilish zarur.

$$Q_3=Q_{nl}=Q_d$$

Polimerga so'ngi ishlov berish qurilmasida, polimerlanish zonasidan kelayotgan olietilen suyuqlanmasi suv osti granulyatorida ekstruziya qilinib,

granullaga aylantiriladi. So'ngra granulalar bug'lanish quritish va ajratilish jarayonlaridan o'tqaziladi. Bug'lanish kalonnasida qoldiq uglevodorodlar polietilenden bug'lanib chiqarib yuboriladi. Bunda polietilin tarkibida uglevodorodlar miqdori 0,05% dan oshmasini kerak.

Aralashtirish quritish jarayonlarida polietilin partiyasining bir xilligi taminlanib berishdan tashqari qoldiq uglevodorodlarni chiqarib yuborish davom etadi. Ekstruziyalash jarayonida ploimer xossalari yaxshilash maqsadida asosiy ekstruderga qattiq va suyuq qo'shimchalar kiritiladi.

1.2.Xom-ashyo yordamchi materiallar

Polietilen

Polietilen zichligi 910-970 kg/m³, yumshash xarorati 110-130 °C bo'lган termoplastik polimerdir.

Sanoatda turli usullarda ishlab chiqarilayotgan polietilen bir-biridan zichligi, molekula massasi va kristallik darajasi bilan farqlanadi.

1.4-jadval

PE ning xossalari	Quyi zichlikli polietilen (YuB)	Yuqori zichlikli polietilen (PB va O'B)
Zichlik, kg /m ³	910-930	950-970
Malekula massasi	80000-500000	80000-800000
Kristallik darajasi, %	50-65	75-90

Xossalari va ishlatilish joyiga qarab polietilen bir-biridan zichligi, suyuqlanmasini oquvchanlik ko'rsatkichi, barqarorlovchi qo'shilgan va qo'shilmaganligi bilan farqlanuvchi turli markalar ostida chiqariladi.

Quyida polietilenlarni asosiy fizikaviy-mexanik xususiyatlari keltiriladi

1.5-jadval

Fizikaviy va mexanik xuxusiyatlar	Quyi zichlikli	Yuqori zichlikli
-----------------------------------	----------------	------------------

	polietilen	polietilen
Buzulish kuchlanishi, MPa		
Cho'zilishda	9.8-16.7	21.6-32.4
Egilishda	11.8-16.7	19.6-39.2
Uzilishdagi nisbiy uzayish, %	500-600	300-800
Cho'zilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	147-245	540-981
Egilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	118-255	636-735
Brinell bo'yicha qattiqlik, MPa	13.7-24.5	44.2-63.8
180° C egilish soni	3000	1500-2000

Doimiy (statistik) og'irlikni uzoq ta'siri natijasida polietilen deformatsiyalanadi. Quyi zichlikli polietilenni uzoq vaqtli baquvvatlik chegarasi 2.45 MPa, yuqori zichlikli polietilenniki esa 4.9 MPa ga teng.

Uzoq vaqt kuchlanish xolatida ishlatiladigan polietilen maqsulotlarini yorilish extimoli bor.

Molekula massasini ortishi, kristallik darajasini va polidisperslikni kamayishi bilan polietilenni yorilishga chidamliligi ortadi.

Polietilenni issiqlik xossalari quyida keltirilgan.

1.6-jadval

Polietilenni issiqlik xossalari	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Suyiqlanish xarorati, °C	105-108	120-130
Haroratbardoshlik, °C	108-115	120-135
Issiqlik o'tkazuvchanlik, $Vt/(m^*K)$	0.29	0.42
Issiqlik ta'sirida chiziqli kengayish koeffisenti 0-100°C o'rtasida, 1/grad	$(2.2-5.5)*10^{-4}$	$(1-6)*10^{-4}$
Issiqlik ta'sirida xajmiy kengayish koeffisenti 50-100°C o'rtasida, 1/grad	$(6.0-16.0)*10^{-4}$	$(5-16.5)*10^{-4}$

Mo'rtlik xarorati (suyuqbardoshlik), °C	-80 dan -120 gacha	-70 dan -150 gacha
---	--------------------	--------------------

Polietilen zichigini ortishi bilan uning suyuqlanish xarorati ortadi.

Quyi zichlikli polietilenden olingan maqsulotlar 60°C gacha, yuqori zichlikli polietilenden olinganlari esa 100°C gacha ishlatalishi mumkin. Polietilen -70°C da mo'rt bo'ladi va shuning uchun undan olingan mahsulotlar qattiq sovuq sharoitlarida xam bemalol ishlatalishi mumkin.

Polietilen yuqori suvga chidamlilik xossalari namoyon etadi. Quyi zichlikli polietilen 20°C da 30 kun davomida 0.04%, yuqori zichlikli polietilen esa 0.01-0.04% suv shimadi.

Polietilen yaxshi dielektrik xisoblanadi. Quyida uning elektr xususiyatlari keltirilgan

1.7-jadval

Xossalari	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
1 m/s da dielektirk sindiruvchanlik	2.2-2.3	2.1-2.4
Dielektrik yo'qotishning tangens burchagi (1 m/s va 20°C da)	$(2-3) \times 10^{-4}$	$(2-5) \times 10^{-4}$
Solishtirma elektor qarshiligi		
Sirt, Om	$< 10^{14}$	$< 10^{14}$
Hajmiy, $\text{Om}^* \text{m}$	10^{15}	10^{15}
1 mm qalinlikdagi buyumni o'zgaruvchan tokka nisbatan elektor mustaxkamligi, kV/mm	45-60	45-60

Yuqoridagilardan ko'rilib turibdiki polietilenni zichligi uning elektr xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Polietilen oddiy sharoitda (xona xaroratida) organik erituvchilarda erimaydi. Faqat 70°C dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda bo'kadi xamda eriydi. U kontsentrlangan kislota, ishqor va tuz eritmalarini ta'siriga chidamli.

Kontsentrlangan sulfat va xlorid kislotalari polietilenga umuman ta'sir etmaydi, azot kislotasi va unga o'xhash kuchli oksidlovchilar polietilenni parchalab tashlaydi.

Atmosfera, quyosh nurlari ta'siriga va issiqlik ta'sirida oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida, polietilenga turli xil barqarorlovchilar qo'shiladi.

Polietilen past xaroratda ($110\text{-}130^{\circ}\text{C}$) yumshaydigan termoplastik polimer bo`lib, xona sharoitida bironta ham erituvchida erimaydi. Aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda 70°C dan yuqorida bo`kadi va eriydi. Polietilen kontsentrlangan kislota va ishqorlar, tuzlarning suvdagi eritmalarini ta'siriga ham chidamli. Atmosfera ta'siriga hamda issiqlikda oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida polimer tarkibiga turli xil stabilizator-antioksidantlar qo'shiladi. Polietilen radiotexnikada va televizor qismlarini olishda elektroizolyatsiya materiali sifatida, korroziyaga chidamli qoplamlar, turli maqsatlarda ishlatiluvchi plyonkalar, idishlar olishda, qog'oz, yog'och, matolarni shimdirishda va x.k. ishlatiladi. Mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshiligi, qayta ishlashning osonligi hamda arzonligi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan sintetik polimerlar orasida polietilenni birinchi o'ringa chiqib olishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda polietilen olishning bir qancha usullari mavjud ;

- Yuqor bosimda
- Past bosimda
- O'rta bosimda
- SKLERTEK texnologiyasi bo'yicha

Adabiyotlarda ular quyidagicha belgilanadi (ingliztilida) LDPE; HDPE; MDPE va LLDPE.

1. Yuqori bosimli polietilen (past zichlikli)

Sanoatda yuqori bosimli (HDPE) polietilenetilenni $200\text{-}280^{\circ}\text{C}$ da $150\text{-}300$ MPa bosim ostida kondensatsiyalangan gaz fazasi da radikal polimerlanish

katalizatorlar ishtirokida polimerlab olinadi. Olingan polimer 920-930 kg/m³ zichlikka 80000-500000 o'rtacha molekular og'irlikka va 50-60 % kristallik darajasiga ega bo'ladi.

2. Past bosimli polietilen (yuqori zichlikli)

Sanoatda past bosimli (LDPE) polietilen gaz va suyuk fazalarda ionli yoki koordinatsion ionli polimerlash orqali olinadi. Jarayon (0.3-0.5)-(2-2.5) MPa bosimda (70-80) -(90-105) °C xaroratda Sigler - Natta yoki xromorganik, xromoksidlari kabi katalizatorlar ishtirokida olib boriladi.

Bu usulda olingan polietilenning molekula massasi, olish usuli va ishlatilgan katalizator xiliga bog'liq bo'ladi. Sigler - Natta katalizatorlari ishtirokida molekula massa 2-3 mlnga teng polimerlar olish mumkin.

Sanoatda asosan 80 000-500000 molekula massasiga ega polietilen ishlab chiqariladi. Molekula massasi juda yuqori bo'lgan polietilenni qayta ishlashni maxsus usullari ishlab chiqilgan.

Suyuq faza va past bosimda (yuqori zichlikli) polietilen olish

Past bosimdagi (PB) polietilen bu usul bilan etilenni 0.3-0.5 MPa bosimda, 70-80°C da, organik erituvchilar (benzin va x.k.) muxitida polimerlab olinadi. Polimerlanish Sigler-Natta katalizatorlari (dietilalyuminiyxlорid va titanitetraxloridi) ishtirokida olib boriladi.

3. O'rtacha bosimda olinadigan polietilen (yuqori zichlikli)

O'rtacha bosimda (MDPE) polietilen, etilenni 130-150 °C da , 3,5-4 MPa bosimda erituvchi muhitida alyumosilikat yuzasiga o'tkazilgan o'zgaruvchan valentli metall (Cr,Mo,V) oksidlaridan iborat katalizatorlar ishtirokida polimerlab olinadi. Katalizator tashuvchisi sifatida ishlatiladigan alyumosilikatni 75-90 % i kremniy(II) oksididan iborat.

Xromoksiди asosidagi katalizator, alyumosilikat tashuvchini xrom(III) oksidini suvdagi eritmasi bilan shimdirib tayyorlanadi. Xromoksiди bilan shimdirilgan tashuvchi 100-200 °C da quritiladi. Xromoksidlarini optimal miqdori 5-6 % ni tashkil etadi.

Katalizatorni faolligini oshirish maqsadida ishlatishdan avval uni 500-550°C da 5 soat davomida quruq havo bilan qizdiriladi. Ushbu sharoitda ishlov berilgan katalizator tarkibidagi 80-90 % Xrom 6 valentli holda bo'ladi. Faollashtirilgan katalizator sovutilib yaxshilab berkitilgan idishda saqlanadi.

Usulni kamchiligi sifatida polimerni ajratib olish va tozalash bilan bog'liq qo'shimcha jarayonlarni ortishi hamda erituvchining ko'p sarf bo'lishi va regenirlash bilan bog'liq yangi jarayonlarni qiyinligini ko'rsatish mumkin.

4. SKLERTEK texnologiyasi bo'yicha turli markali polietilen olish.

Bu texnologiya bo'yicha polimerlanish jarayoni reaktorlarda siklogeksan erituvchi muxitida 17 MPa, 300°C xaroratda va Sigler-Natta kompleks katalizatorlar ishtirokida amalgam oshiriladi. Ushbu texnologiyaning o'ziga xosligi shundaki, texnologiya bo'yicha sintez qilingan polietilen har xil zichlikka va strukturaga ega bo'ladi. Ushbu texnologiya bo'yicha chiziqsimon past zichligi (LLDPE) chiziqsimon o'rta zichlikli (MDPE) va chiziqsimon yuqori zichlikli (HDPE) polietilen turlarini ishlab chiqarish mumkin. Polimerlanish reaksiyasi juda katta tezlikda borishi sababli, reaktorlarni xajmi uncha katta bo'lishi shart emas, chunki monomerni reaktorda polimerga aylanishi uchun bir necha sekund yetarlidir. Texnologik jarayon aniq bir rejimda ishlaganda 1 minutda 270-290 kg polimer ishlab chiqariladi. Ushbu texnologiya bo'yicha olinayotgan polimerning zichligini berilayotgan somonomer buten-1ni miqdorini o'zgartirish yordamida molekula massasi va molekula massaviy taqsimotini esa polimerlanish reaktorlarga uzatilayotgan vodorodni berilish joylari va miqdorini o'zgartirish orqali rostlanadi.

Sanoatda polietilen $\text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl}^*\text{-TiCl}_4$ katalitik kompleksi ishtirokida yarim uzlusiz usulda olinadi. Uchetilalyuminiya nisbatan polimerlanishda dietilalyuminiyxlоридни ishlatish ancha qulay. Chunki dietilalyuminiyxlорид оson tozalanadi, ancha arzon va eng muximi yonish xamda portlashga moyilligi ancha kam.

Polietilenni qayta ishlash

Polietilen termoplastik polimerlarni qayta ishlash usullarini hammasi bilan qayta ishlanishi mumkin: presslash, ekstruziyalash, bosim ostida quyish va h.k. YuB da ishlab chiqarilayotgan polietilenni yarmi parda olishda ishlatiladi. Polietilenden asosan uy-ro'zqor buyumlari, o'yinchoqlar, santexnikada va boshqa joylarda ishlatiladigan quvurlar, konstruktsion detallar ishlab chiqariladi. Radiotexnika va televidenieda, kabel sanoatida, qurilishda elektr izolyatsiya materiali sifatida korroziyaga qarshi qoplama, mato, qog'oz va yog'ochni shimirishda ishlatiladi.

Xamma markali polietilenlar fiziologik zararsiz bo'lganligidan, ular meditsinada, uy-joy qurilishida, turli xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Plastifikatorlar

Ko'p xollarda polimer materiallarni buyumlarga qayta ishlash polimerni oldindan plastifikatsiyalanganda yengillashadi. Plastifikatsiyalash qayta ishlashni pastroq temperaturada olib borish va mo'rtligi kam, elastikligi yuqoriroq bo'lган buyumlar olish imkonini beradi. Bu effekt polimer tarkibiga plastifikatorlar deyiluvchi maxsus qo'shimchalar kiritilishi xisobiga erishiladi. Polimer plastikligini oshiruvchi istalgan qo'shimcha plastifikator bo'lishi mumkin. Plastifikatorlar sifatida quyi molekulyar yuqori temperaturada qaynovchi polimerlar bilan aralashuvchi suyuqliklar ishlatiladi. plastifikatorlar erituvchilar va disperslovchilardan kam uchuvchanligi bilan farqlanadi. Plastifikatorlarni ta'siri polimer mokromolekulalarini o'zaro tortilish kuchlarini kamaytirishga asoslangan. Polimerlar plastifikatorlar bilan aralashtirilganda unda bo'kadilar. Bo'kish quyi molekulyar birikmalar molekulasini polimer makromolekulalari orasiga singishi bilan sodir bo'ladi, bunda makrozanjirlar orasidagi masafa ortadi va ularni ta'sirlashishi kamayadi. Shu bilan bir vaqtda polimer molekulalari zvenolari va plastifikator molekulalari o'rtasida bog'lar xosil bo'ladi. Natijada polimerlarni qovushqoqligi va shishalanish temperaturasi kamayadi. Polimerni qovushqoqligini

kamayishi (plastikligini ortishi) uni nisbatan past temperaturada qayta ishlash imkonini beradi.

Plastifikatorlarni guruxlarga bo'lish odatda ularni kimyoviy tarkibi, yuqori molekulyar birikmalarni eritish va ular bilan aralashuvchanligi bo'yicha bo'ladi.

Kimyoviy tarkib plastifikatorlar quyidagi guruxlarga bo'linadilar: murakkab efirlar (ftalatlar, fosfatlar va boshqalar), uglevodorodlar va ularni xosilalari, o'simlik moylari va ularni modifikatsiyalash mahsulotlari (odatda epoksidlash xisobiga).

Yuqori molekulyar birikmalarni eritish qobiliyati. Plastifikatorlar yuqori molekulyar birikmalarni eritishi va eritmasligi mumkin. Plastifikator sifatida qo'llaniluvchi birikmalarning aksariyati erituvchilar guruxiga kiradi.

Eritmaydigin plastifikatorlar polimer makromolekulalari bilan solvatlanmaydilar va polimerda aloxida qo'shimcha sifatida bo'ladilar. Ekspluatatsiya qilish va eskirish jarayonida ular polimerdan «terlab» chiqib ketadilar va shu sababli ularni samarodorligi kamdir. Eritmaydigan plastifikatorlar guruxiga (xlorlangan difenil), kaechor moyi, kasterol (kaechor moyini oksidlash mahsuloti), bo'lishga ayrim kam qutbli birikmalar va aralashmalar. Erimaydigan plastifikatorlani erituvchi plastifikatorlar bilan birga ishtatilganda ularni samarodorligi ortadi. Bunda erituvchi plastifikatorlar polimer makromolekulalari bilan solvatlanadilar, erimaydigan plastifikator molekulalari esa solvat qobig'ini to'ldirib, sistemani umumiy samarodorligini oshiradilar.

Odatda erimaydigan plastifikatorlar kam qutbli, kimyoviy barqaror birikmalar bo'lib polimerlarga qimmatli ekspluatatsion xossalarni beradilar.

Polimer bilan aralashuvchanlik. Ma'lum bir yuqori molekulyar birikma uchun ushbu plastifikatorni qo'llash mumkinligini amaliy mezoni bo'lib xizmat qiladi. Aralashuvchanlik chegarasi bu aralashmaslik belgilari (polimer sirtini yopishqoq bo'lishi, terlashi) namoyon bo'lmaydigan plastifikatorni optimal miqdoridir. Ayrim plastifikatorlarni ayrim polimerlar bilan aralashuvchanligi quyidagichadir.

Plastifikatorlarni ayrim polimerlar bilan aralashuvchanligi

1.7-jadval

Plastifikatorlar	Aralashuvchanlik, massa.qism / 100 massa.qism polimer							
	Alkid qatori	Epoks id qatori	Poliuretan	Polivinilxlorid	Asetil eszeluloza	Atsetobutir ateseluloza	Selulozanitrat	Etilsel uloza
Butilbenzilftalat	50	25	25	100	10	100	100	100
Dibutilftalat	70	25	25	100	25	100	100	100
Di (g-ethylgeksil) adipinat	50	1	15	100	1	25	35	100
Di (2-ethylgeksil) ftalat	25	1	25	100	1	50	100	100
Triklozolfasfod	70	25	25	10	25	30	100	70
Trifenilfosfat	50	10	10	20	35	50	75	30

Olinishi. Murakkab efirlar turkumidagi plastifikatorlar kislotalarni mos spirtlar bilan to'g'ridan-to'g'ri eterifikasiatsiyalashga asoslangan.

Xossalari. Plastifikatorni samarodorligi va aktivligi uni erituvchanlik ta'siri bilan va kritik temperatura qiymatiga bog'liq. Kritik temperatura bu shunday minimal temperaturaki, undan boshlab yuqori molekulyar birikma bilan plastifikator to'la aralasha boshlaydilar. Masalan kolloksilin va sellyulozani boshqa efirlariga nisbatan plastifikatorlarni samarodorligi aralashishning kritik temperaturasi qiymati qancha kichik bo'lsa, shuncha yuqori bo'lishi aniqlangan. Plastifikatorlar aralashmasi qo'llanilganda ularni shunday nisbati takidlanadiki, bunda eng kichik aralashuvchanlik temperaturasi va samarali plastiklash ta'siri kuzatiladi.

Plastifikatorni samaraliligi (aktivligi) 2 xil usulda ifodalanadi: polimerni belgilangan darajadagi elastiklik darajasini olish uchun zarur bo'lgan plastifikator qo'shilganda erishilgan polimerni elastiklik darjasini.

Plastifikatorlarni samaradorligi faqat ularni erituvchanlik qobiliyati bilangina boqliq bo'lmay, balki ularni kimyoviy tuzilishiga xam bog'liq. Masalan, plastifikatorlar tarkibida alkil guruxlarni bo'lishi birikmalarga yaxshi plastifikatsiyalovchi xususiyatni beradi, bundan farqli aromatik guruxlarning bo'lishi (masalan, naftalin turidagi) plastifikatsiyalovchi xususiyatini kamayishiga va plastifikatsiyalangan sistemani sovuqqa chidamliligini yomonlashuvigi olib keladi. Sovuqqa chidamlik tarmoqlangan uglerod zanjirlaridan tashkil topgan plastifikatorlar qo'llanganda xam kuzatiladi.

Plastifikatorlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

Polimer bilan aralashib, ekspluatatsion barqarorlikka ega bo'lgan sistema xosil qilishi;

Kam uchuvchanlik;

Rangsizlik;

Xidning yo'qligi;

Ekspluatatsiya qilishning eng quyi temperaturalarda xam plastifikatsiyalash ta'sirini saqlash;

Polimer komponentlarnikidan kam bo'limgan kimyoviy bardoshlik.

Bundan tashqari qo'shimcha talablar xam qo'yiladi. Masalan, polimer tarkibidan erituvchilar, suyuq muxitlar, yuvuvchi vositalar, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ekstraktsiya qilinmasligi, dielektrik, optik va boshqa ayrim xossalarni dastlabki darajada saqlash kabilar.

Plastifikatorlarni polimer kompozitsiyalarini texnologik xossalariiga ta'sirining samarodorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan baxolanadi: suyuqlanish temperaturasini va oqish temperaturasini, qovushqoqlikni plastifikator kontsentratsiyasidan bog'liqligi, shishalanish temperurasining pasayish darajasi.

1.3. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari

Ekstruziya va Granulalash. Past bosimli separatorning (4PS) FA – 2122 ikkinchi bosqichidan polimer suyuqlanmasi $E=14000 -23400 \text{ K}_2/\text{n}$ sarf bilan $170-225^\circ$ xaroratda va 60-50 Kpa bosimda yuklash varankasi orqali asosiy ekstruderga

JD – 2301 x tushadi. LPS ning ikkinchi bosqichidan chiqayotgan polimer suyuqlanmasi tarkibida erituvchining miqdori 2,5% (og’irlik boyicha) tashkil etadi. Shnek polimerini “Dauterm” moyi bilan 180-240° C gacha qizdirilayotgan ekstruder slindri ichida katta bosimda GD -2301 x suv osti granulyatori filerasiga uzatiladi. So’ngra fileradan chiqayotgan makaron ko’rinishidagi polimer namunalari sovitilib 3mm kattalikdagi granulalargacha kiritiladi. Filera harorati ham “Dayterm” moyi yordamida 230 -300° oralig’ida ushlab turiladi.

Shnek 4 bo’limdan iborat.

1. Uzatish 3. Miyorlash

2. Siqish 4. Aralashtirish


1. Uzatish bo’limi shnekni kanalini eng chuqur bo’lgan qismidir. Kanalning chuqurligi va shnek qavariqlari oralig’ining kattagi sababli ushbu bo’limda shpanli chuqurchlar (uymalar) bo’ib, ular uzatish karopkasi bilan birga kuchlanish xosil qiladilar. Undan tashqari ushbu bo’limda 915 mm kattalikdagi uzatish tezligi bo’lib, bo’lim oxirida zichlanish qismi ham bor.

2. Siqish bo’limidagi vintli profil (shakl) o’masi diametrining kattalashganligi sababli, kanal chuqurlgi qisqargan bo’ladi. Buning natijasida polimerni siqish ortadi. Siqishni ortishiga undan tashqari kanal enini kamayishi va qavariq oralig’ini kattalashtirish ham sabab bo’ladi. Bo’limning uzunligi 1 diametrga teng.

3. Meyorlash bo’limi shnekning eng uzun qismi bo’lib, bu bo’limda kanalning eni va chuqurligi doimiy bo’ladi

Ikkita katta qavariq bo’lib, qavariqlarda moylash uchun oymalar mavjud. Qavariq oralig’idir o’zgarmasdir. Ushbu bo’limda turli qo’shimcha moddalar slindinga uzatiladi. SHu sababli ushbu bo’limdagi qavariqning maydoni bo’lib vintli profel chuqurida oymalar mavjud.

4. Aralashtirish bo’limida o’z ichida olgan ko’raklari singan yoki yedirilgan shnekni eslatuvchi kurakchali aralashtirgichni eslatuvchi “Tarneda” aralashtirgichni oladi.



1-rasm. Quyish formalarida sovutish tizimi.

- a) ketma-ket ulangan sovutish tizimli to`g`ri kanallar;
- b) alohida ulangan sovutish tizimli to`g`ri kanallar;
- v) ketma-ket ulangan sovutish tizimli konsentrik kanallar;
- g) alohida ulangan sovutish tizimli konsentrik kanallar.

1.4. Tayyor mahsulotga qo`yiladigan talablar

SHnek aylanishda polimer suyuqanmasidan ajarilib chiqayotgan erituvchining qoldiq bug'lari ekstruderdan chiqarib yuborilishi kerak. CHunki bu bug'lar polimerni fileraga itarishiga qarshilik qilib, ekstruderni ishlab chiqarishi unumdorligini pasaytiradi. Siqish bo'limida polimer siqishganida suyuqlanma tarkibidagi uglevodlar bug'lari ham siqiladi va bosimi pastroq bo'lgan uzatish bo'limiga qarab harakatlana boshlaydi. Buning natijasida vaqt o'tishi bilan bo'shliq yoki kattagina bo'sh joy ham paydo bo'ladi. Ushbu bo'shliq shnekni aylanishi natijasida paydo bo'lib, torayishini berkilishiga yoki boshqacha qilib aytganda, vaqt o'tishi bilan polimer sarfini kamayishiga olib keladi. Buning natijasida ekstruder "ochlik poyoli" deb ataluvchi xodisaga uchraydi. SHu xolni oldini olish madsadida ekstruderning uzatish bo'limining yon tomonida 45° va 90°

burchak ostida ikkita JD-2302 2304 vetylasiyasi uskunalar o'rnatilgan bo'lib ular ekstruderning ishini barqaror ushlab turadi. Ventlyatsiya uskunalar yordamida 0,1-0,15% uchuvchi moddalar chiqarib yuboriladi. Bug' qaytargich qurilma yordamida hosil qilinayotgan vakum ham ushbu uglevodorod bug'larini chiqarib tashlashga yordam beradi. Ventlyatsiya qismidan Seklogekson bug'lari, erituvchi bug'lari kondensatori EG 2301 orqali dekantator EA 2318 ga laboreladi ikkala ventlyatsiya qurilmasi parallel holga past bosimli bug' inektori yordamida hosil qilinayotgan 05 kg/sm² vakumda ishlaydi. Vakuum kondensat ishdan chiqishiga o'rnatilgan bosim monometrlari PG 23002 PG 23004 yordamida o'lchanadi. Ventyasiya qurilmalari odatda oquvchanlik ko'rsatkichi 20 yoki undan kam bo'lgan polimerlar olishda ishlatiladi. Oquvchanlik ko'rsatkichi 40 va undan ortiq bo'lgan polimer olishda ishlatiladi. Va unda HV-23255 HV-23256 ikala shtraxman kalonnani berk holda bo'ladi suyuqlanma harorati 2-8 ga teng polimer olishda esa ekstruder shnekida bosimida barqaror bo'lmaydi. Polimer chiqarish jarayonidan shnek ventlyasiya qurilmalarini doimo avvaldan ma'lum tezlikda ishlab turish ma'lum vaqtda shaylab turish kerak.

2-8ga teng polimer olishda esa ekstruder shnekida bosimida barqaror bo'lmaydi, bu hol odatda xato bo'lgan xulosalarga ya'ni ventyatsiya qurilmalarini yaxshi ishlayapti degan xulosalarga olib kelish mumkin. Polimer chiqarish to'xtatilganda shnekli ventlyasita qurilmalarini uzoq vaqt ishlab turishlari maqsadga muvofiq emas. Ventyatsiya qurilmalarini ishdan to'xtab qolishini oldini olish maqsadida ularni silekon moylovchilari bilan moylab turish kerak. Polimer chiqarish jarayonidan shnek ventyatsiya qurilmalarini doimo avvaldan 40-50%li tezlikda ishlatib turish va ma'lum vaqtadan kiyin doimiy moylab turish kerak. Ekstruder ishdan to'xtatilganda shtraxman klapanlari berkitiladi va shnekli ventyatsiya qurilmalari ishlash tezligi 10-20% gacha pasaytirilishi mumkin. Bunday holda ishlayotgan ventyatsiya qurilmalari har ikki soat moylanib turishi kerak. (asosiy ekstruder yana ishga tushilguncha). Ventyatsiya kondensati idishlari to'lib ketishi oldini olish maqsadida har smenada bir marotaba bo'shtib

olinishlari kerak. Ventilyatsiya kodensati quyib olinayotganida, mumkin emas bo'lsa shtraxman klapanli berkitishdab avval ekstruderni sekinlashtirish kerak.

Ekstruder to'rtta issiq moy bilan isitiluvchi sovituvchi ($T=190-230^{\circ}\text{C}$) bo'limidan va suv osti granulyatori GD-2301x ning korpusi bilan biriktirilgan adanterdan tashkil topgan issiq moy GA-2305x GA-2306x GA2307x GA-2308x ekstruder tsilindri tugatilgan holda saqlanishi uchun ekstruderni past tomonidan kirib yuqori tomonidan chiqariladi.

Issiq moyni qaytma (teskari) oqimi orqali ikkilamchi nasosga qaytariladi va harorat nazoratchisi talabi boyicha ekstruder bo'limlarida berilgan haroratni ushlab turish maqsadida EA-2303x EA-2304x EA-2305x issiqlik almashgichlarida sovitiladi yoki orqaga FA-2301x idishga qaytariladi.

Aganterga yuqori bosimli bug' yordamida $P=3300-3450 \text{ KPA}$ $T=240-245$ $200-240^{\circ}\text{c}$ harorat ushlab turiladi. Asosiy estruderning ikkinchi va uchunchi bo'limlari orasida "Datchman" deb nomlanuvchi maxsus qurilma joylashgan. Ushbu qurilma ekstruderga suyuq/quyuq qo'shimchalar ko'rinishiga mo'ljallangan suyuq qo'shimchalar HV-23004 HV-23005 klapanlari orqali uzatiladi. Ekstruder tsilindriga havoni kirib kelishini oldini olish maqsadida, shnekni uzatmasi tomonidan bir necha kanallar tomonidan ochilgan bo'lib, bu kanallar orqali polimer suyuqlanmasi teskari yunalishiga shnekga nisbatan 90° burchakda qirqilgan chuqurlikga uzatiladi. Polimer orqa zichlashgichli bug' bilan isituvchi va sarfni nazorat qiluvchi ventili bor quvur orqali chiqarib yuboriladi.

Asosiy ekstruder JD-2301x polimer suyuqlanmasini CD-2301x suvosti granyulatoriga uzatiladi. Polimer pastdan yuqoriga harakatlanib diametric 3mm granyulator filerasidan o'tadi va suvosti granyulatoriga suv bilan sovilayotgan kamerasida (vannasiga) tushadi. Plastik (polimer suyuqlanmasi) sovishi natijasida qotadi va filera yuzasiga aylanayotgan kesuvchini puchaklari yordamida granula ko'rinishida qirqiladi va ishlab chiqarilayotgan polimer xiliga qarab, granulyatorni normal ishlashiga bir gram polimerdan 38-45 dona granula olinishi kerak. Asosiy ekstruderni tirkaklari qizib ketishini oldini olish maqsadida ekstruder tirkaklari sovuq suv yordamida sovitiladi.

Silindr bo'limlaridan (zona) hararat tsilindrga o'rnatilgan TE-23354 A/V TE-23356 A/B, TE-23358 A/B TE-23360 A/Vharorat elementlari yordamida o'lchanib moy uzatish klapanlari TV-23701, TV-23702, TV-23703 TV-23704 orqali LP½ ekstruderni LP boshqarish paneliga ko'rsatiladi. LP ½ ekstruder boshqarish paneliga o'rnatilgan HS-3353 A qo'lda ishga tushirilgan yoqgich yordamida ekstruderning aylanish tezligi nazorat qilinadi.

Ekstruderdagи chiqishdagi va agaterdagи bosimni ortib ketishi natijasida, ekstrudertsilindri va adanterga shkastlanish paydo bo'lishini yoki polimerni orqaga chiqib ketishini oldini olish maqsadida, ekstruderni chiqish joyi va adanterga belgilangan bosimi $p=34475$ KPa bo'lgan PSE 399 yorituvchi membrane o'rnatilgan. Granulyatorda esa belgilangan bosim $p=20685$ KPA bo'gan PSE 398 yorituvchi membrana o'rnatilgan.

Yoriluvchi membrana tushganda 1-EX blakirovka faollashadi ba asosiy ekstruderni to'xtatadi GD- 2301x granulyatori kesuvchi, polimerni kesuvchi, filera platinasidan chiqayotgan polimerni 3x3 mm kattalikdagi granulalarga kesishda ishlatiladi. Kesuvchi (rezak) granulyator valiga o'rnatilgan 16ta o'tkir pichoq piskadan iborat. Granulalarning aniq kattaligi polimer xossalariга bog'liq (oquvchanlik ko'rsatgichi, zichlik, suyuqlanmani bukish). Granulalashda bir gramm polimerdan olinayotgan granulalar sonini ko'paytirish yoki kamaytirish maqsadida o'zgartiriladi. Granulyatorni tezligi o'zgarmagan holda ekstrudrning tezligini oshirish yoki kamaytirish ham gramm polimerdan olinuvchi granulalar sonini o'zgarishga olib keladi.

Granulyator pichog'I (kesuvchi) piskalari bilan filira plastinasi yuzasi orasidagi masofada, hamda piskalarni yedirilashi darajasi granulalarni kesilishiga ta'sir ko'rsatadi. Granulyator pichog'i piskalari SHansi boricha filera plastinasi yuzasida yaqin joylangan bo'lishi kerak.

Ushbu oraliq standart usuli piskalari tamoni sekin asta granlolator tomonidan tok kuchi (amperlarda) miqdori ortishi boshlaguncha surilishidan iboratdir. Bu piskalarni filera plastikasi yuzasiga tekkanidan dalolat beradi. JD-

2301x ni to'xtatiladigan holatida Gd 2301x dagi tok kuchi 41-44 amper bo'lishi kerak.

Granulyator piskalarida polimerni yig'ilishiga yo'l qoyilsa, kesish sifati seziralli darajasida yomonlashadi. Kesish sifatini yaxshi holda ushlab turish uchun turli xil polimerlar bilan granulyatorga uzatilayotgan aylanuvchi (sovitish uchun) suvning oqimi ham o'zgarib turiladi. Suvni to'g'rilab turiladigan kattaliklariga uning sarfi va harorati kiradi. Undan tashqari aylanib turuvchi (tsirkulyasiya) suvga suvni sovitish xossalariini uzaytirish va granulyator matoridagi tok kuchi (amper) ampliturudasi pasytirish maqsadida azot qo'shiladi. Polimer suyuqlanmasi filerasi plastinasi teshiklarida xarakatlanib oldinga itarilgan sari suv oqimi bilan sovitiladi va granulyatorni aylantirib turgan piskalar yordamida kesiladi. Kesish sifati granulyatorning hamda aylanuvchi suvning fizik kattaliklariga borliq, mator o'zgaruvchan tezlik bilan granulyator va pranulyator valini harakatga keltiradi. Valini oxirida granulyatorni o'tkazish maqsadida rezba ochilgan. Granulyatorni buraliyotganida valni aylanib ketishini ildini olish maqsadida oyuvchi material bilan jihozlanadi. Polimer oqimidan granulyator konstruktsiyaviy to'laligicha ko'tarish yoki tushirish mumkin. Granulyator valini filera yuzasiga nisbatan perpendikulyar ravishda o'rgatuvchi (joylashtiruvchi) to'g'rilashi bloklari ko'zga tutilgan.

Mator tezligini nazorat qilishda II 3365 A/B ampermetr estimol qilinayotgan tok kuchi to'grisida ma'lumot berib turadi.

Granulyator kesuvchisi qopqog'i.

Qopqoq aylanma suvni granulyator qopqog'inining yunaltiriladi. Granulyatordan chiqayotgan suv o'zi bilan granulalangan polimerni qobiq orqali chiqishi quvurini olb chiqadi. Qobiq "konsu4" filera plastinasi yunalishida o-ko'rinishidagi rezina prokladga bilan zichlanib kiyin bolt bilan maxkamlanadi. Granulyatordan yoki aylanma suv sistemasida nasoslikni paydo bo'lishi natijasida polimer bilan qobiqni to'lib tiqilib qolishi mumkinligi sababli xardoim yangi zaxira proklatga qo'l ostida bo'ladi.

Qobiq belgilangan bosimi $p=345$ kPa bo'lgan ximoyalash PSV-364 bilan jixozlangan. Kirish zavuri izolyatsiya zadvishkasi, chiqish qobig'i esa driperlash zadvijkasi bilan jihozlangan.

CHiqish quvuri qopqog'ida shuningdek kuzatish oynasi ham o'rnatilgan. Ushbu quvur baypas yo'li bilan jixozlangan bo'lib, baypas yo'lidan kuzatish oynasini tozalash vaqtida yoki kuzatish oynasini aglameroylar bilan to'lib ifloslangan vaqtda foydalaniladi.

Pichoqlarni (piskalarini) almashtirish. Odatda pichoqlar 100% yimirilganidan kiyin almashtiriladi. Lekin pichoqlar yimirilishi (yidirilishi) 50%dan ortgandan so'ng har qanday qulay vaqtda ularni almashtirish maqsadga muvofiqdir, shunday qilinganda ishlab chiqarishda keraksiz to'xtalishlar oldi olinadi. Ishlab chiqarish grafiki pichoqlarni almashtirish xisobga olingan holda tashkil etilishi kerak. SHuningdek kesish sifati yomonlashganda pichoqlarni postlash bu muammoni yechishda yordam beradigan bo'lmasa ham pichoqlar almashtiriladi. Ekstruder ishdan to'xtatilganda filerani ushlab turuvchi plita bosqichma-bosqich sovitiladi. Agarda ekstruderdag'i polimer oquvchanligi yuqori bo'lsa, fileradan yuqori bosimli bug' ham uzib qoyiladi bunday qilish pichoqlarni almashtirish vaqtida ushlab turuvchi plitalardan polimerni sizib chiqishini oldini oladi.

Filera kerakli darajada sovigach, aylanma suv granulyator qapqog'idan chiqariladi. Grananulyatordagi kirish yo'lidagi aylanma suvdan azot uziladi. Elektir toki uzilgandan so'ng granulyator dvigateli to'xtaydi. Granulyatordagi chiqishdagi zadvezka berkitiladi va grnulyator qapqog'i bo'shatilganidan so'ng ochiladi. Pichoq cho'pchagi (stupetsiyasi) lyufti (bemalol xarakatlanish oralig'i) tekshirilib uni qiymati yozib qoyilishi kerak. Pichoqlarni o'rnatish uchun rostlash mexanizimi shunday o'rnatiladiki, bunda val filerani ushlab turuvchi pilitaga nisbatan o'zini eng yuqori no'qtasiga ko'tarilgan holda bo'lishi kerak. So'ngra pichoqlarni chupchagi val oxirida o'rnatiladi va oxirigacha maxkamlab buraladi. So'ngra pichoqlar chupchagi tortish uskunasi yordamida osongina itarilib joyiga

qotirilib qoyiladi. Qo'shishdan so'ng pichoqlarni aylanish valda stupisaning chap tarafidan rezvasini o'ziga tortadi.

SHundan so'ng rostlash mexanizimi pichoqlar chupchagini filera yuzasi bilan to'qnashguncha tushirib berish uchun ishlataladi. Bunda asta sekin qo'l yordamida cho'pchani filera yuzasiga yunaltiriladi va cho'pchakni aynanishini to'xtashi, uni filera yuzasi bilan to'qnashganligini bildiradi. Lekin bundan keyin ham chupchakni qo'l bilan aylantirish mumkin bo'lsin. Pichoqlarni fileraning tirgak plitasiga parallelligini aniqlash uchun ya'ni pichoqlar stupilasining lyuftini tekshirish zarur. Lyufni o'lchovi kalibrator bitta pichoqqa qoyiladi. Stupetsa o'rnatilishida uning ko'rsatgichlari yozib olinadi. Bu kattaliklar har xil pichoqlarni yechishda va yangi lupchag qoyilganda yozib yuborilishi kerak.

Granulyator qapqog'i va aylanma suv liniyasi tuzatiladi va suv oqimi menimal (eng past) qiymat 180-210 1/h ga qoyiladi isitish vaqtida, sovitish suvi miqdorini kamaytirish uchun, uning menimal oqimni uzatish maqsadida muvofiqdir. SHunday qilinganda plitasini ushlab turuvchi plita harorati tez o'zgarishidan (stressdan) saqlab qolinadi.

Granulyator ishga va uning tezligi 50% gacha oshiriladi. Tok kuchini matorga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida rotametr FI 2301 orqali kiish yo'liga azot ochiladi. So'ngra tok kuchini ozgina oshishi pichoqni filera yuzasiga yaqinlashtiradi. Tok kuchini ozgina oshishi pichoqni filera yuzasiga tekkanligidan xabar beradi.



3-rasm. Filera.


Filera tanasi va filerani ushlab turuvchi plitani qizdirish polimerlanishi boshlab yuborishni mo'ljallab mos ravishda olib borilishi kerak. Filera tanasi va uni ushlab turuvchi plitani qizdirish kamida (minimum) 2 soat amalga oshiriladi va uni qizdirish polimerni FA-2121, FA-2122 ga kirishidan 15-30 minut avval tugallanishi kerak. Avvaliga filerani tanasi yuqori bosimli bug' yordamida 1 soat davomida qizdiriladi va kiyingi 1 soat vaqt davomida filerani ushlab turuvchi plita bosqichma – bosqich qobilyatiga egadir. Polimerni yaxshi (toza) kesish uchun pichoqlarni ishchi tomonini charxlash zarur.

Ekstruderni past tezlikda ishga tushirish aglomeratlar hosil bo'lishiga olib kelish mumkin. Ekstruderdan chiqayotgan polimerno kesish sifati avvaliga yaxshi bo'lmay juda mayda granulalar hosil bo'ladi va bu matiriallar granulalar chiqindisi kankanteriga jo'natiladi. Keyin talabga javob beradigan bo'lganidan so'ng ekstruder o'z ishlab chiqarish unumdoorligiga to'g'ri qiladigan tezlikka olib chiqiladi va granulyatorni tezligi 1 gramm polimerdan 40-50 ta granula chiqishiga mo'ljallanib rostlanadi.

SKLEARTECH texnologiyasi bo'yicha polietilen ishlab chiqarish.

Ushbu texnologiya bo'yicha polietilen ishlab chiqarishning umumiyligi texnologik jarayoni rasm. 3 da keltirilgan. Jarayon asosan 3 ta bo'limdan tashkil topgan: Birinchi bo'lim polimerni sintez qilish bo'limi bo'lib, bu bo'limda xomashyo tayyorlanadi, monomer tsiklogeksanda eritiladi va polimerlanish o'tkaziladi. So'ngra polimerni katalizatorlardan tozalab, ajratib olinadi (1-14%). Ikkinci bo'lim (retsikl bo'limi) eritmani qayta tiklash bo'limi bo'lib, ushbu bo'limda reaktsiyaga kirishmagan xomashyo va materiallarni qayta ajratib tozalanadi, ularni toza xolda yana polimerlanish jarayoniga qaytariladi (15-20%). Uchinchi bo'limda polimerniekstruziyalash, granulaga aylantirish, granulalarni tozalash, quritish, aralashtirish va qadoqlash amalga oshiriladi (21-29). Asosiy erituvchi tsiklogeksan tozalanganidan so'ng, qaytma somonomer buten-1 bilan aralashtirilib, mahsus nasos orqali sovutuvchi absorberga uzatiladi. Sovutuvchi absorberda toza etilen va buten-1 aralashmasi qaytma

erituvchida erilib, asosiy erituvchida erigan buten-1 bilan aralashtiriladi va bu eritma reaktor uchun "xom-ashyo" eritmasi hisoblanadi.



Расм 3. SKLEARTECH технологияси бүйнчын чизикли полиэтилен инсталлациясының технологиялык жарагайынын схемасы:

1,2 – адсорбер; 3 – насос; 4 – ўлчагыч; 5 – реактор №3; 6 – реактор №1; 7 – Триммер реактор; 8 – аралаштырыч; 9 – иситгич; 10 – адсорбер; 11 – РСГ саклагыч; 12 – РД саклагыч; 13 – ЛРС сепаратори; 14 – ЛРС сепаратори; 15 – конденсатор; 16 – LB колонна; 17 – FE колонна; 18 – НВ колонна; 19 – RB колонна; 20 – СМ колонна; 21 – иситиб берувчи; 22 – гранулятор; 23 – классификатор; 24 – иситиб берувчи; 25 – буттапиш колоннаси; 26 – куритгич; 27 – аралаштырыч; 28 – бункер; 29 – кадоклаш.

SKLEARTECH texnologik jarayonida ketma ket joylashgan 3 hil polimerlash reaktorlaridan foydalilanadi:

1. Reaktor №1 – aralashtirgichli avtoklav
2. Reaktor №3 – quvursimon adiabatik reaktor
3. Uchinchi reaktor quvursimon reaktorga o'xshash bo'lib, quvursimon rektordan ancha qisqa bo'ladi va trimmer reaktori deb ataladi. Uchta rektordan turli kombinatsiyalarda foydalanish orqali turli molekula – massaviy taqsimotga, strukturaga va xossalarga ega polietilen ishlab chiqariladi. Buning uchun reaktorlarni uch hil rejimda ishlatiladi:
 - 1) Reaktor №1 rejimi bo'yicha asosiy polimerlanish jarayoni avtoklav reaktorida amalga oshiriladi. Avtoklav reaktorining aralashtirgichi kurakchalar bilan jixoz-langan bo'lib, xom-ashyoning asosiy qismi reaktorning tag tomonidan purkab beriladi. Lekin 50% ga yaqin xom-ashyo reaktor aralashtirgichi 4-chi kurakchasi balandligida purkab berilishi mumkin. Katalizator reaktorni tag tomonidan purkab beriladi. Ushbu rejimda reaktor №1 (6) dan oldin turgan №3 (5) quvurli reaktor oddiy quvur vazifasini bajaradi. CHunki quvurli rektordan xom-ashyo katalizatorsiz o'tadi. Xom-ashyoni me'yorlab, reaktorni turli joylaridan berilishi orqali reaktordagi xaroratni nazorat qilinib, reaktorning tepa va pastki qismidagi farqini 5-40°S bo'lishiga erishiladi. Reaktor №1 da polimerlanish 200-300°S xaroratda, 13.4 – 16.9 MPa bosimda amalga oshiriladi. Olinayotgan polietilenni molekulyar massasi xarorat va berilayotgan vodorodni miqdori orqali rostlab turiladi. Polimerni zchligi esa buten-1 miqdorini o'zgartirishorqali rostlanadi. Monomer va somomerni polimerlanishi uzlusiz ravishda, tsiklogeksan eritmasida, aralashtirgichli reaktorda metall kompleks katalizatorlari ishtirokida ketadi. Qoldiq monomer, faol katalizator ishtirokida trimmerda qo'shimcha polimerlanadi va undan so'ng reaktsiya massasi faolsizlantiriladi (ktalizator faolsiz-lantiriladi). Bu rejimda olingan polietilen tor molekula-massaviy taqsimotga ega bo'lib, uning "Kuchlanish ko'rsatgichi" 1.15 – 1.37 atrofida bo'ladi.
 - 2) 3+1 reaktori sistemasi rejimi o'z ichiga quvursimon (5) va aralashtirgichli reaktorlarni (6) qamrab oladi. Bu rejimda "xom-ashyo"

ning bir qismi quvursimon reaktorda polimerga aylansa, ikkinchi qismi to'g'ridan-to'g'ri birinchi rektorni o'rta qismiga beriladi. Katalizator purkash yo'li bilan quvursimon reaktor(5)ga ham reaktor №1 (6)ga beriladi va u yerda xom-ashyo bilan aralashadi. Ikala reaktorda hosil bo'lган polimer aralashtirgichli reaktorda (6) bir hil aralashma hosil qiladi.

Polietilenni molekula massasi reaktorlardagi xaroratni, vodorod va xrm-ashyo miqdorini ikala reaktorga berish nisbatini nazorat qilish orqali rostlab turiladi. Molekula-massaviy taqsimoti esa katalizator tarkibi va uni quvursimon reaktorga kiritish xarorati, hamda etilenni polietilenga shu reaktorda aylanish darajasini nazorat qilish orqali rostlanadi. Ushbu rejim bo'yicha "Kuchlanish ko'rsatgichi" 1.4-1.6 bo'lган, o'rtacha molekula-massaviy taqsimotga ega bo'lган polimer olinadi. Ikala reaktorga ham xom-ashyo va katalizator alohida-alohida berilganidan, ikkala reaktor bir-biriga bog'lanmagan holda ishlaydi. Reaktor №1 dan chiqayotgan aralashma trimmerga uzatiladi va bu yerda polimerlanish davom ettirilib, etilenni polietilenga aylanish darjasini ko'payadi.

3) Reaktor 3 → 1 (uchdan birgacha) rejimi bo'yicha asosiy jarayon uchinchichi (5) quvurli reaktorda olib boriladi. Bu rejimda ikkala reaktor (5 va 6) quvursimon avtoklav ko'rinishida ishlaydi va №1 avtoklavni arlashtirgichi ishlatilmaydi. Xom-ashyo va katalizator №3 raektorga (5) beriladi. Odatda quvurli reaktorga(5) berilayotgan xom-ashyoning xarorati 120°S dan pastga tushib ketmasligi kerak. Reaktor №3 dan polimer eritmasi reaktor №1 ga o'tadi va u yerda polimerlanish davom etadi. Reaktor №1 ga kira-yotgan aralashmaning xarorati 200°S , chiqayotgan aralashmaning xarorati esa 300°S ni tashkil etadi. Odatda quvurli reaktorda 60% etilen polietilenga aylanadi va monomerni polimerga aylanish darjasini reaktor №1 da hamda trimmerda ortadi. Ushbu rejimda sintez qilingan polietilen keng molekula-massaviy taqsimotga ega bo'lib, uning "Kuchlanish ko'rsatgichi" 1.652 ni tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan barcha rejimlarda polimerlanish tugaganidan so'ng, katalizator tezlikda faolsizlantirilishi kerak, chunki yuqori xaroratda polimerlanishni

davom etishi ko'pgina qo'shimcha va yordamchi reaktsiyalarni ketishiga va polimerni struktura hamda hossalarini o'zgarib ketishiga olib keladi. Faolsizlantiriuvchilar sifatida ikki hil moda ishlataladi: Birinchi faolsizlantirgich sifatida ishlataladigan pelargon kislotasi (PG) :

$\text{CH}_3\text{-}(\text{CH}_2)\text{-COOH}$ polimer eritmasiga aralashtirgich (8)dan qo'shiladi. Pelargon kislotasi katalizator bilan kuchsiz sovun ligandini hosil qiladi. Ligandni hosil bo'lishi qoldiq katalizator ni isitgich(9) devorida cho'kma hsil qilishini oldini oladi. Ushbu isitgichda polimer eritmasi $285\text{-}300^\circ\text{S}$ gacha isitiladi. PG ning suyuqlanish xarorati anchagina past bo'lganligi tufayli faolsizlantiruvchi modda normal ish sharoitida yuqori qovushqoqlikka ega bo'ladi. SHuning uchun PG berilganidan so'ng, isitgichda isitilib, normal oqim ta'minlanadi. So'ngra keyingi aralashtirgichga (8) o'tkaziladi. Bu yerda unga ikkinchi faolsizlantiruvchi modda atsetilatseton (PD) $\text{H}_3\text{C}-\text{CO}-\text{CH}_2-\text{CO}-\text{CH}_3$ qo'shiladi. Ikkinci faolsizlantiruvchi modda atsetilatseton katalizator qoldig'i bilan xelat modda hosil qiladi va eritma adsorberi (10) da katalizator qoldiqlarini adsorbsiyalanishiga yordam beradi.

Katalizator faolsizlantirilganidan so'ng, uni polimer eritmasidan ajratib olish kerak. Polimer eritmasi adsorberlari (10) faollashtirilgan Al_2O_3 bilan to'ldirilgan bo'lib, faolsizlantirilgan katalizatorlarni oddiy filtrlash va fizik-kimyoviy adsorbsiyalash hisobiga ajratiladi.

Katalizator qoldiqlaridan tozalangan $285\text{-}310^\circ\text{S}$ xarorat va yuqori bosim ostidagi aralashmadan polimerni ajratib olish uchun ajratuvchi separatorlarga uzatiladi. Bu separatorlar ikki hil bo'lib, birinchisi o'rta bosimli IPS (13), ikkinchisi past bosimli LPS (14), separatorlari deyiladi. O'rta bosimli separatorda polietilen reaktsiyaga kirishmagan etilen va buten-1 dan ajratiladi. Bu separatorda bosim 9-11 MPa dan 3 MPa gacha pasayadi (polimer markasiga qarab). O'rta bosimli separatordan chiqayotgan mahsulot 50% atrofida polietilen saqlaydi. Past bosimli separator (14) ikkiga bo'lingan idishdan iborat bo'lib, yuqori qismi 1chi bosqich va past qismi 2chi bosqich separatori hisoblanadi. Ikkala bosqich o'rtasiga filtr o'rnatilgan. Past bosimli

separatorda polietilen tsiklogeksandan ajratiladi. Separator tagidan chiqayotgan polietilenda tsiklogeksan miqdori 2% dan oshmasligi kerak. Past bosimli separatorda xarorat 200°S ni, bosim birinchi bosqichda 0.5 MPa, ikkinchi bosqichda 0.07 MPa ni tashkil etadi. Ajralib chiqqan barcha yengil uchuvchi moddalar distilyatsiya kolonnalariga (16,17,18,19,20) uzatilib, u yerda tozalangach yana tsiklga qaytariladi. Past bosimli separator tagidan polietilen ekstruder (21)ga tushadi va u yerda zichlantirilib, granulyator (22) ga uzatiladi. Turli hil qattiq xoldagi qo'shimchalar (antiadgeziv va boshq.) asosiy ekstruderga qo'shimcha ekstruder yordamida uzatiladi. Anti-oksidantlar, barqarorlovchi moddalar, sirg'anishni oshiruvchi moddalar polimerga suyuq xolatida qo'shiladi. Granulyatorda bir hil kattalikka ega granulalar olinib, suv yordami-da klassifikator (23)ga uzatiladi. Klassifikatorda polietilen granulalari qoldiq tsiklogeksandan tozalanadi. Buning uchun (25) bug'latgichdan chiqayotgan bu g' granula yo'naliishiga teskari qilib beriladi va polietilen tarkibidagi tsiklogeksaknni miqdorini 2% dan 0.05% gacha kamaytiriladi. Yuqori zichlikka ega bo'lган polietilenni tozalash uchun bu g' xarorati 108°S gacha, past zichlikkaega polietilen uchun esa $102\text{-}103^{\circ}\text{S}$ dan oshmasligi lozim. Tozalangan polietilen granulalari quritgich (26)da quritilib, xavo yordamida aralashtiruvchi aralashtirgich (27)ga uzatiladi. Bu yerda xavo o'zi bilan engil uchuvchi moddalar, polietilenni 3x3 mm. dan kichik bo'lган granula va bo'lakchalarini olib chiqib ketadi. Aralashtiruvchida olingan bir hil o'lchamli granulalar bunkerlarga (28) va u yerdan qadoqlashga uzatiladi.

1.5. Xom ashyo va materiallarning sarf balansi

Asosiy ekstruderdan chiqqan polimer adapterga o'tadi va undan kiyin filera tanasi bo'shligicha siqib chiqariladi. Suyuqlanma oqimi filera plastinasiga tekisligiga nisbatan 90° tenaga qarab harakatlanadi. Filera bo'shlig'i ichida xalqa polimer suyuqlanmasi oqimini filera plastinasiga kirish yuzasida bir tekis taqsimlanishini taminlaydi. Ekstruderning chiqish qismida $P=34475$ kPA bosim qiymatiga

mo'ljallangan PSE-399 yoriluvchi membrana o'rnatilgan bo'lib, u jihozni bosim ortib ketishidan himoyalaydi. Yoriluvchi membrananing yaxshiligi buzilganda I-Ex blokirovka ishga tushadi va asosiy ekstruderni to'xtatadi.

Aganter va filera tanasi (korpusi) yuqori bosimli bug' yordamida qizdirildi. Kesuvchi pichoq uzatmasining vali filera tanasining markazidan o'tadi. Filera tanasi kesuvchi pichoqning sozlash mexanizmini, sritinglarni va podsheniklarni ushlab turadi.

Val uning stvoli atrofida joylashgan bo'shliq orali CA-2319 /sx nasoslarni meniralsizlantirilgan sovitilgan suv haydovchi sovitish tizimi bilan jixozlangan. Bu suv rezurbuariga qaytariladi. FD-2311x filerada filterlanadi (tozalanadi) va yana foydalanish uchun ea-2326x issiqlik almashgichda sovitiladi. Kecuvchi pichoq valini sovuq suv bilan sovitish uni qizish natijasida cho'zilishini kamaytiradi. Agar kesuvchi pichoq balining harorati filera korpusi haroratiga tenglashga, valning cho'zilishi kesuvchi pichoqlarining filera plastinasiga nisbatan joylashishini o'zgartiradi va kishi sifatiga ta'sir qiladi. Nasosning chiqish yo'li $p=345$ kPA bosimga mo'ljallangan PSV-366 himoya klapini bilan jihozlangan. SHuningdek EA-2326 issiqlik almashgichidan kiyin liniya Fi sl-23662 suv sarfini o'lchagich o'rnatilgan bo'lib u suvning past sarfiga LP-1/2 boshqaruv panelida FAL-23662 yorug'lik sinishini beradi. Suvning kam sarfini I-Bx blokirobka ishga tushib 2 daqiqadan kiyin JD-2301x asosiy ekstruderni va 7 daqiqadan kiyin GD-2301x suv ostida granulalash moslamasini to'xtatadi.

GA-2319 sx nasoslarini LP-1/2 panelida joylashgan MS-3663 A/B o'chirib o'lchash uchun TG-23027 liniyasi orqali to'ldiriladi. Granulalash moslamasining valini moylash va zichlagichni taminlash uchun cirkulyasiya qilayotgan meniralsizlantirilgan suv bilan qo'shimcha ta'minlash liniyasi orqali to'ldiradi. Granulalash moslamasining valini moylash va zichlagichini ta'minlash uchun tsirkulyasiya qilayotgan meniralsizlantirilgan suvgaga 20:1 (suv:moy) nisbatda maxsus suvda eriydigan Gchuvologu moyi qo'shiladi.

Filera

Filera plastinasida diametri 3mm bo’lgan tishiklar bo’lib ulardan polimer suyuqlanmasi oqib o’tadi. Teshiklarini umumiy soni A84 dona bo’lib ular 8ta sektsiya joylashgan. Polimer suyuqlanmasi bu teshiklardan chiqqan sovitiladi va kesiladi. Filera teshiklarida suyuqlanma sovib qattiq holda o’tib teshiklar tiqilab qolmasligini oldini olish uchun, filera teshiklari orasida isitish kanallari o’tkazilgan. Bu kanallardan $T=(240-290)^\circ\text{C}$ haroratda “Daurem” moyi oqib o’tadi.

Filera plastinasining surti uni qizib ketishini oldini olish uchun himoyalovchi material bilan qoplangan. Filera teshiklari volfram karbididan tayyorlangan qoplama detallar bilan jihozlangan ular kesuvchi pichoqni ishlash natijasida filerani yedirilishini oldini oladi. Aytib o’tilgan detallar kesuvchi pichoqning bir tekisda yediriladigan qilib o’rnatilgan. Kesuvchi pichoq tig’lari fileraga qoyilgan detallar matiriallardan yumshoqroq bo’lib, ular filera sirtiga nisbatan tezroq yidiriladi.

Filera plastinasi 3 ta xalqadan iborat.

1. Tashqi
2. Ichki
3. O’rta

1.Tashqi va ichkixalqalar filera tanasiga boltlar bilan maxkamlangan. O’rtadagi xalqada esa filera teshiklari va qaynoq moy aylanadigan kanallar mavjud. Tashqi xalqada ham 4 ta kirishi va 4 ta chiqishi bo’lgan issiq moy aylanuvchi birikmalar mavjud.

2. Filera jihozning murakkab qilish bo’lib qizitish va sovitish paytda unda kuchli zo’riqishlar yuzaga keladi. Filerani ishlash muddadi isitish – sovitish sikllarida bu jarayonning keskin o’tishi va bu sikllarida bu jarayonning keskin o’tishi va bu sikllarning soni bilan belgilanadi.

Filera plastinasi issiq, sovuq tasirida kengayishi va qisqarishi tufayli ishdan chiqishi mumkin. Issiq – sovuq sikllarining sonini menimumga kiritish yoki sovitishni asta sekinlik bilan amalga oshirish kerak. Filerani tayanch plastinasini qizdirish va sovitish amalyoti xarorat tasirida zo’riqishini menimumlashtirish

uchun yaratilgan bo'lib, u asta – sekinlik bilan qizdirish va sovitilishi bilan amalga oshiriladi.

Filerani avtomatik ravishda sovitish.

Filerani avtomatik sovitish tizimi filerani tayanch plitasini favqulotda xolatlarda tezkorlik bilan sovitish uchun yaratilgan. Filerani sovitish granulalash moslamasi dvigatelining aylanish tezligi kamayganda SAL-23149 xalokatli signalida yoki granulalash moslamasining qapqog'ida sovituvchi suv sarfi kamayganda FAL-2302 B signalizatori ishga tushganda fileradan chiqayotgan polimer miqdori kamayishiga mo'ljallangan. Bu ikki xolat ekstruder dvegatelini blakirovkalaydi va to'xtatadi.

Filerani sovitish granulalash moslamasi qopqog'i zo'riqishini kamaytirishga xizmat qiladi. Oquvchanlik ko'rsatkichining qiymati katta bo'lган polimerlarni suyuqlanmasi asosiy ekstruder dvegatili to'xtatilgandan kiyin ham bir qancha vaqt mobaynida inertsiya hisobiga kanallarda harakatni davom ettiradi.

Filerani avtomatik sovitish tizimi faollashganda XV 23792 fileraning tayanch plitasiga issiq moy berish klapan ochiladi. Filerani sovitish tizimi qo'l bilan boshqariladigan HS-234046 filerani sovitish tizimini ishga tushiruvchi va HS-23404 A tizimining dastlabki holatga qaytaruvchi ikkita o'chirib yoqgichga ega. Serkulyasiya qiluvchi suv sarfi tushib ketganida ishga tushuvchi halokatni signal boshqaruv paneliga FAL-2302 B ordali va markaziy boshqaruв pultida FTC 23002 orqali aks etadi. Joyidan boshqaruв panelida o'chib yonuvchi lampochkalar filerani sovitish sistemasi HL-23404A yoqilgan yoki HL-23404B "normal" xolatlarda ekanligini ko'rsatadi.

Filera sovitishitizimidan xalokatli haroratlardagina foydalanish kerak va normal xolatlarda uni ishlatish kerak emas. CHunki filerani tayanch plitasining harorat tasirida zo'riqishiga sabab bo'ladi. Filerani sovitishi qo'l bilan bo'shqarib o'chirish faqat xalokatli xolatlarda ruxsat etiladi. O'chirib yoqgichni harakatkatga kelishini filerani sovitish tizimini faollashtiradi va JD 2301x ekstruderni to'xtatadi. HS-23404 tug'ma zonani zudlik bilan evakatsiya qilish uchun mo'ljallangan.

Moy qizdirish tezligining TIC 23823 harorat nazoratchisining qo'lda boshqarish tizimiga o'tkazmay turib va polga chiqish topshirig'ini o'rgatmay turib HS-23404A sovitish tizimini qaytadan ishga tushirish tugmasini bosib bo'lmaydi. Bu tugma berilganda qizigan moy oqimining yo'lini to'sib qoygan XV-23792 avtomatik klapan ochiladi.

Qaytadan ishga tushirish tugmasi faqat TIC-23823 harorat nazoratchisi qo'lda boshqaruvi rejimida bo'lganda va topshiriq chiqishi polga o'rnatilgan xoldagina ishga tushirish mumkin.

JD-2302 x yordamida ekstruder. JD-2302 yordamchi ekstruderni qattiq xoldagi qo'shimchalarni va suyuqlanma xoliga katta siklga kiritilayotgan polimerni asosiy ekstruderga kirishi uchun mo'ljallangan. Bu materiallar qayta siklga kirayotgan polimer va qattiq holatdagi qo'shimchalar aralashmasi ham bo'lishi mumkin. Qayta siklga kirayotgan polimer – bu granulalash bu quritish bosqichlaridan o'tgan, ammo oliy nav sifatiga mos kelmaydigan polimerdir. Bu polimerni yordamchi ekstruderga qayta tiklash va yana qayta ishlab chiqarilayotgan polimerga o'tishida uning sifati 1-sortga ko'tariladi. Qayta tiklangan polimer rangi talab darajasida bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarilayotgan maxsulatga qo'shilayotgan aurim qo'shimchalar qo'shilayotgan erituvchilarda eritmasligi sababli faqat quruq granula xolida ishlatilishi mumkin. Bu qo'shimchalar yordamchi ekstruderga polietilin bilan aralashtirilib ishlab chiqarilayotgan maxsululotga kiritlishi mumkin. SHu usulda ikkita standart qo'shimcha va butan qo'shiladi.

JD-2302 yordamchi ekstruder odatda hamma vaqt ishlaydi. Uni ishlash tezligi (unumdorligi) mavjud qayta ishlanayotgan granula miqdoriga bo'g'liq. Bundan tashqari agar FA 2122 dan chiqqan chiklogeksan bug'lari shu aparatning konus qismidagi polimer qatlamni yorib o'tsa yordamchi ekstruder doimo ishlab turish kerak asosiy ekstruder esa ishlamaydi.

Jd-2302 yordamchi ekstruder asosiy ekstruderga o'xmaydi. U aylanish tezligi o'zgaruvchan dvigatildan, reduktordan, qaynoy moy bilan qizdirish tizimi bilan isitiladigan slindrdan, shnekdan iborat.

Yordamchi ekstruder dvigateli LP ½ asosiy ekstruderning boshqaruv po'shtidan MS-23367 A/b o'chirib yoqich bilan ishga tushiriladi. Tezlikni nazorat qilishni HIC 23348 B nazoratchi yordamida amalga oshirish mumkin. Dvigatel istemol qilayotgan tok kuchi (amperlarda) ekstruderni boshqarish panilida boshqaruv yordamida aks etadi.

I-EX blokirobka asosiy ekstruder ishlaganda yordamchi ekstruderni ishlashiga imkon bermaydi. Bu blokirobni aylanib o'tish uchun HS-23469 aylanib o'tish o'chirib yoqish tutilgan.

Dvigatel ham TAN-23647 signal berish va I GX yuqori xarorat blokirobkasi o'rnatilgan bo'lib u yordamchi ekstruderni to'xtatadi. Reduktor ikkita GA-2302/SX nasosli moylash, EA-2302 x suv sovitgichi FD-2302 x moyni tozalash filtirlari tezimi bilan jihozlangan. Yuqori harorat va moyning kuchi bosimi uchun Tan 23600 PAL 23603 signal beruvchilar va 1-cx, I-FX blokirovkalar ko'zga tutilgan.

1.6. Texnologik jarayonda asosiy jihozni tanlash va uning issiqlik balansini hisoblash

Hisoblangan hajm quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$V_p = \frac{(m_d \cdot n + m_{l.s.})K}{\rho},$$

bu erda V_p – hisoblangan hajm, sm^3 ;

m_d – quyma detal massasi, g;

$m_{l.s.}$ – litnik tizimning massasi, g;

n – forma uyasi soni;

K – polimer eritmasining siqilishini va uning formaga kiritilganda sochilishini hisobga olgan koeffitsient, $K = 1,2-1,3$;

ρ – qayta ishlangan materialning zichligi, g/sm^3 .

Quyush mashinasini unumdorligi quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$Q = \frac{3,6 \cdot m \cdot n}{\tau_u},$$

bu erda m – mahsulot massasi, g;

n – forma uyasi soni;

τ_{ts} – mahsulot quyish siklining davomiyligi, s.

Bosim ostida quyish sikli davomiyligi:

$$\tau_u = \tau_{cm} + \tau_{enp} + \tau_{ebid} + \tau_{oxi.\delta/\partial} + \tau_p + \tau_n,$$

bu erda τ_{sm} , τ_r , τ_{vpr} – shaklni yopish va ochish vaqt, vpriska vaqt, s;

τ_m – kompyuter vaqt deb ataluvchi ularning yig'indisi;

$$\tau_m = \tau_{cm} + \tau_p + \tau_{enp}.$$

Formani yopish va ochish vaqt mashinaning texnik xususiyatlaridan olinadi

Vpriska vaqt quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\tau_{enp} = V_p / Q,$$

bu erda Q – vpriskaning hajmiy tezligi, sm^3/s .

Sikllar orasidagi pauza davomiyligi $\tau_p = 2-3$ s.

Bosim ostida formada materialning ushlab turish davomiyligi summasi va mahsulotni bosimsiz formada sovutish davomiyligi texnologik vaqt deb ataladi.

$$\tau_m = \tau_{ebid} + \tau_{oxi.\delta/\partial}.$$

Texnologik vaqt tayyor mahsulotning deformatsiyasiz olish mumkin bo`lgan mahsulot markazidagi belgilangan haroratgacha sovutish vaqtini ko'rsatadi.

Texnologik vaqt aloqa issiqlik uzatish qonuni asosida hisoblanadi:

$$\tau_m = \frac{h^2}{K_1 \cdot a} \ln \frac{K_2 (T_m - T_\phi)}{T_u - T_\phi},$$

gde h – mahsulotning devor qalinligi, m;

a – issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, m^2/s ;

T_m – to'qimalarni qolipning qolib bo'shilg'iga kiritilgan polimer eritmasining temperaturasi, $^{\circ}S$;

T_f – qolip temperaturasi, $^{\circ}S$;

T_i – chiqarilgan mahsulotning harorati, °S;

K_1 i K_2 – mahsulotning geometrik shakliga qarab sovutish tezligini aniqlaydigan koeffitsientlar: tekis mahsulot, parallelepiped, silindr (4.2-jadval).

6-jadval.


Mahsulotlarni sovutish tezligini aniqlaydigan koeffitsientlar

Mahsulot shakli	K_1	K_2
Plastina ($f = B/h > 2,5$)	$\pi^2 = 9,86$	$4/\pi = 1,27$
Parallelepiped ($f = B/h \leq 2,5$)	$\frac{f^2}{\pi^2(1+f^2)}$	$4/\pi = 1,27$
TSilindr	5,76	1,60
Bu erda B -mahsulotning kengligi; h -mahsulot devorining qalinligi (o'lchamini aniqlash)		

Ekstruziya uchun texnologik hisoblar

Polimer materiallarni formovka, plastikatsiya, gomogenizatsiyaga tayyorlash va kallakka uzatish extruder tsilindridagi aylanuchi shnek yordamida amalga oshiriladi. Polimerni qayta ishlash texnologik rejimi tabiatiga bog'liqligiga qarab terli profildagi shneklar qo'llaniladi. Termoplastlarni qayta ishlash uchun ikki turdag'i shneklar ishlatiladi: o'zgaruvchan chuqr spiral kanalli va o'zgaruvchan kadamli.

- rasmda o'zgaruvchan chuqr spiral kanalning shnek sxemasi ko'rsatilgan.



19-rasm. Ekstruder shneki.

SHnekning asosiy geometrik parametrlari quyidagilar:

- diametr D ;
- uzunlik L ;
- vintli kesish qadami t ;
- zonalar bo'yicha kanal chuqurligi h ;
- o'ram kengligia e ;
- shnek va tsilindr ichki devori orasidagi masofa δ ;
- shnekning ko'tarish burchagi φ ;
- shnek kesish soni, λ .

Ekstruderning asosiy xarakteristikasi uning unumdorligi hisoblanadi. Hisoblash uchun shnekning geometrik xususiyatlarini va kallakning geometrik shaklini bilishimiz kerak.

II. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish


Kimyo, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarining amaldagi korxonalarini zamonalashtirish va yangilarini yaratish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning turli masalalarini hal qilish bilan bog'liq katta hajmdagi ishlarni bajarishni ko'zda tutadi. Avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilish – ko'p bosqichli jarayondir. Unga ilmiy tadqiqot, loyihalash va montaj – sozlash ishlari, shuningdek, ishlatish jarayonida avtomatlashtirish tizimlarining ishonchli ishlashini ta'minlovchi tadbirlar majmuasi kiradi.

